Nuh ibn Mansur



Nuh ibn Mansur

Amiri Rashid

(963 – Buxoro – 997)

(976-997)

Somoniylar *davlati*ning amiri, amir ***Mansur ibn Nuh***ning o‘g‘li. Otasining vafotidan so‘ng taxtga o‘tirdi (976 yil 26-sentabr). Siyosiy va harbiy sohada islohotlar o‘tkazgan. ***Muhammad ibn Abdulloh ibn Aziz*** vazir, ***Abulhasan Simjuriy*** sipohsolor (bosh qo‘mondon) bo‘ldi. Siyosiy jarayonlarda turk lashkarboshilarining mavqei kuchaygan. Nuh ibn Mansurning lashkarboshisi ***Foyiq*** Raboti Malik yaqinida bo‘lgan jangda ataylab yengilgan va qoraxoniylar hukmdori ***Bug‘roxon*** (Horun ibn Muso) Buxoroni urushsiz ishg‘ol qilgan (992). Biroq, ***Bug‘roxon*** kasallik tufayli Qashqarga qaytib ketayotganda yo‘lda vafot etgan (992). Nuh ibn Mansur Amul (Chorjo‘y)dan qaytib, Buxoroni qayta egallagan. Bu paytda Somoniylar davlatiga qarashli Xuroson ***Abu Ali Simjuriy*** (Abulhasan Simjuriyning o‘g‘li) va ***Foyiq***, G‘azna va Hirot viloyatlari ***Sabuktegin*** qo‘lida bo‘lgan. Nuh ibn Mansur bilan ***Sabuktegin*** o‘rtasida Kesh va Naxshabda o‘zaro uchrashuv bo‘lib, unda ***Sabuktegin*** somoniylarni qo‘llab-quvvatlashga va’da bergan. ***Gardiziy***ning yozishicha, Sabukteginning 20 ming kishilik qo‘shini ***Abu Ali Simjuriy*** (997 yil vafot etgan) va ***Foyiq*** askarlariga O‘trot atrofida kuchli zarbalar bergan. Nuh ibn Mansur Buxoroga qaytgan. Biroq uning Somoniylar davlatini tanazzuldan saqlab qolish yo‘lidagi harakatlari o‘z natijasini bermadi. Qoraxoniylarning Buxoroga 996 yil qilgan hujumlari oqibatida ***Sabuktegin*** bilan ***Bug‘roxon***ning vorisi ***Nasr Iloqxon*** o‘rtasida Nuh ibn Mansurning ishtirokisiz muzokaralar o‘tkazilib, somoniylarga Movarounnahrning faqat markazi qoldiriladi. Nuh ibn Mansur saroyida shoir ***Daqiqiy*** ijod qilgan. Mashhur tabib ***Abu Ali ibn Sino*** 16 yoshida Nuh ibn Mansurni davolab, o‘sha davrda Sharqdagi eng boy kutubxona sanalgan Somoniylar davlatining kutubxonasida mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

2023-10-29 20:54:09